



## PASHTU TILIDA TRANSPORT TERMINLARINING YASALISHI (TEMIR YO'L TERMINLARI MISOLIDA)

Xaitov Ashurali G‘ayrat o‘g‘li

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati  
“Sogdiana Trans” ma’suliyati cheklangan jamiyati tarjimonи

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola pashtu tilida temir yo‘l transport terminlarining yasalishi usullari va ular qay yo‘sinda pashtu tiliga kirib qolgani, hozirgi kunda ushbu terminlarning keng qamrovli bo‘lib, iste’molga aylangani va uning pashtu tilidagi ayrim fonetik o‘zgarishlari to‘g‘risida.

**Kalit so’zlar:** affiksatsiya, suffiks, prefiks, kompozitsiya, kalka, birikma.

### ABSTRACT

This article is about the methods of forming railway transport terms in Pashto, how they entered the Pashto language, how these terms have become widespread and common today, and some of their phonetic changes in Pashto.

**Keywords:** affixation, suffix, prefix, composition, kalka, compound.

### KIRISH

Pashtu tilidagi texnik terminlarning o‘rganish masalasi bo‘yicha juda oz ishlar qilingan. Xususan, temir yo‘l bilan bog‘liq terminlar tadqiqotlari deyarli yo‘q. Bizning dastlabki kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, temir yo‘lga oid terminlar XX asrning 20-yillaridan e’tiboran ko‘rina boshlagan. Asosan, Pashtu tiliga temir yo‘l transporti terminlari kirib kelish sabablari bevosita Sheralixon hamda Omonullaxon davriga to‘g‘ri keladi. Ularning sa’y-harakatlari natijasida Afg‘onistonda temir yo‘l tushunchasi paydo bo‘ldi.

Hozir biz pashtu tilida transport terminlari yasalish usullari haqida to’xtalib o’tamiz. Unda affiksatsiya, kalkalash, kompozitsiya va birikma orqali transport terminlarining yasalishiga diqqat qaratamiz.

### Affiksatsiya orqali pashtu tili temir yo‘l transporti terminlarining yasalishi (Formation of Pashto railway transport terms through affixation)

Ma’lumki, so‘z yasalishi til lug‘atining boyishining asosiy yo‘llaridan biridir. So‘z yasash usullarisiz tilning lug‘at boyligini ko‘payish imkoniyatlarini tasavvur qilish qiyin. Pashtu tili ham bundan qolishmaydi. Hozirgi kunda ilmiy-texnika rivoji barcha tillarda, jumladan, pashtu tilida ham o‘zlashmalarining ortishiga sabab

bo‘lmoqda. Bu esa o‘zlashmalarning pashtu <sup>1</sup>tilidagi ichki manba–so‘z yasash usullari orqali ifodalashni taqozo qilmoqda. Affiksatsiya so‘z yasashning eng oddiy, mantiqan shakllantirilgan va etimologik jihatdan muvofiqlashtirilgan usulidir.

و والا (volo) suffiksi orqali egalik hamda biron ish bilan mashg‘ul kishi ma’nosini ifodalovchi terminlar yasaladi. Misol uchun موترو والا (motarvolo) haydovchi, bu yerda motar – mashina, volo suffiks, بارو والا (borvolo) yuk egasi, bor – yuk, volo – suffiks.

وان (von) suffiksi orqali ham kasb-hunar, mashg‘ulot egasi ma’nosini ifodalovchi termin yasaladi. Misol uchun موتروان (motarvon) haydovchi, motar – mashina, von – suffiks, دروازه وان (darvozabon) darvozabon, darvoza – eshik, von – suffiks.

ي (i) suffiks orqali mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosini ifodalovchi termin yasaladi. داکي (doki) pochtachi, dok – pochta, i-suffiks.

ه (a) suffiksi orqali fe'l negizlaridan ish-harakat nomini ifodalovchi terminlar yasaladi. Misol uchun; خاته (xota) ko‘tarilish, chiqish, bunda xot + a. ناسته (nosta) yig‘ilish, nost + a.

باز (boz) suffiksi shaxs mashg‘uloti, moyilagini ifodalovchi terminlar yasaydi. هوا باز (havoboz) uchuvchi, havo + boz.

كه (ka) suffiksi orqali ham transportga oid terminlar yasaladi. الوتكه (alvutka) samolyot, alvut + ka, چورلکه (churlika) vertalyot, churli + ka.

والا (vol) suffiksi orqali shaxs oti termini yasaladi. Va ushbu suffiks xindcha affiks hisoblanadi. باروال (borvol) yuk egasi, bor + vol, شاروال (shorvol) shahar hokimi, shor + vol.

Ushbu termin yasovchi va termin yasashda yordam beruvchi suffikslar orqali pashtu tilida ko‘plab maxsus terminlar yasaladi.

Shuningdek, suffikslardan tashqari pashtu tilida prefikslar yordamida terminlar yasaladi. Ular asosan cheklangan holda bo‘ladi.

Misol uchun; نا (no) inkor ma’nosini beruvchi prefikslar yasaladi. ناگدون (nogadun) qo‘shilmaslik, no + gadun, نامدخله (nomadoxla) aralashmaslik, no + doxla.

هم (ham) prefekslari orqali qo‘shilish ma’nosidagi terminlar yasaladi. Misol uchun; همكار (hamkor) hamkor, ham + kor.

Suffiks o‘zakka qo‘shilib, ma’lum ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu usul orqali yasalgan terminlar ma’lum transport turini, jarayonini , ilmiy-texnik jarayonni, ma’lum hodisaning nomi va u haqida malumot beradi. Misol uchun; باروال (borvol) yuk egasi, bunda بار (bar) yuk (vol) suffiks hisoblanadi. موترووال (mo‘tarvol) haydovchi, تکسیوال (taksivol) haydovchi va shunga o‘xshash misollar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

<sup>1</sup> Zakariyo Mlotar,, اوھوروتون و پېپوتپ 2018 و تا و ن و تا و ن و

برقی اورگادی (barqi urgodey) elektrovoz, ushbu terminning tarkibiy tuzilishi quyidagicha, (barq) elektr + (i) suffiks اورگادی + (urgodey) poyezd, (havoyi dagar) aeroport, ushbu terminning tarkibiy tuzilishi; هوا (havo) + (i) ي ورگونکی موټر (borvrunkay mo‘tar) katta yuk mashinasi, bunda (bor) yuk (vrunkay) suffiks بار ورگونکی موټر بار (bor) yuk (vrunkay) suffiks.

چورلول (churluka) vertolyot, bunda چورلول (churlavl) aylanmoq, gir aylanmoq + که (ka) suffiks.

علامت (teredunkay utumot elomat) o‘tish joyidagi avtomatik signalizatsiya, uning tarkibiy tuzilishi; تېرىدۇنلىكى اوتومات علامت (teredl) (unkay) suffiks + ونکى + علامت + .

ستېشىن نوکریوال (steshn navkarivol) stansiya navbatchisi, ushbu terminning tarkibiy tuzilishi; سېتېشىن (steshn) + نوکر (navkar) + وال (vol) suffiks.

گاه استگاه (istgoh) bekat, stansiya, ushbu terminning tarkibiy tuzilishi; (ist) + (goh) suffiks, ترمىمگاه (tarmimgoh) depo, uning tarkibiy tuzilishi; ترمىم (tarmim) + (goh) suffiks.

لوكوماتيو چلوونکى (lokomotiyu chalavunkay) mashinist, ushbu terminning tarkibiy tuzilishi; (lokomotiyu) + (chalavl) + (unkay) suffiks.

د عمليانو د تىكسي پالل كىري په چوکات کي چى د يو بنه كنته ورکوي پورتە. د سره اور او خونديتوب د مطابقت لوكوماتيو سمبال دوه اور ضد آلاتو خخە په وخت د تېرون دايمن كري. لوكوماتيو چلوونکى<sup>2</sup> Shunting مکلف دى چى د مهارتىنو د فعالىت او مناسب زده كري لرى keji p chukat ke che d yav sha katina varkavi po‘rta d sara ur av xvanditub d mutobiqat lokomotiyu sambol dva ur zid olotu sxa p vaxt d tarun dodman kri. Lokomotiyu chalavunkay mukalif day che d mahoratunu d faoliyat av munosib zda kre lari). „Taksining ishlashi port haqida yaxshi ma'lumot beradigan suratda amalga oshiriladi. Teplovozlarning o‘z vaqtida kontrafaktga qarshi moslamalar bilan jihozlanganligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida Manyovr lokomotiv mashinisti o‘z faoliyatiga mos keladigan uchta malakani o‘rganishi shart”.

موتورلرونکى واگون (moturlarunki vogun) motorvagonli vagon, uning tarkibi quyidagicha; (motor) (larunki) suffiks + واگون + لرونکى + (motor) suffiks.

د بىزىنزاپىي لوكوماتيو (d breshnoyi lokomotiyu) teplovoz, uning tarkibiy qsmlari; د (d) + (breshno) (lokomotiyu) بىزىنزاپىي + لوكوماتيو (breshno) بىزىنزا

مسافирورونکى رېل گادى (musofirvrunkay rel goday) yo‘lovchi tashuvchi poyezd, bunda مسافير (musofir) (vrunkay) suffiks + رېل (rel) + گادى (goday).

<sup>2</sup> <https://unansea.rasmiy.sayti>

واردات (vordot) import, bunda ات (ot) suffiks, (sodrot) eksport, bunda صادرول (sodravl) eksport qilmoq + ات (ot) suffiks.

Yuqorida ko‘rinib turibdiki, pashtu tilida affiksatsiya usuli bilan ko‘plab terminlar tashkil topgan. Ularning ma’lum bir Grammatik qo‘shimchalar orqali o‘zgarganligini keltirgan misollarimizda ham ko‘rib o‘tdik.. Pashtu tili transport terminlarida affiksatsiya orqali o‘zlashish holatlari juda ko‘plab uchraydi. Ular asosan prefiks hamda suffikslar orqali amalga oshiriladi. Biz yuqorida suffikslar orqali tilning lug‘at boyligining qay tariqa boyishi ko‘rib o‘tdik.

### **Kalkalash orqali temir yo'l transporti terminlarining yasalishi (Construction of railway transport terminals through kalka)**

Kalka - so‘z o‘zlashtirishning eng sermahsul usullaridan biri hisoblanadi. Chunki tilda avvaldan mavjud bo‘lmagan yangi so‘z yoki termin paydo bo‘ladi. Natijada o‘sha tilning lug‘at boyligi ortadi. Dr. Bushra Ikram o‘zining „Pashto Terminography“ ilmiy maqolasida „ Leksikografiya va terminologiya lug‘at yozish va tahrirlash bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus ko‘nikmalardir. Yuqorida keltirilgan ta’riflardan biz terminlar yaratamiz va so‘zlashuvchilari uyg‘oq yoki o‘lik bo‘lgan hozirgi zamon talablarini bajaradigan har qanday tilni tan olamiz va o‘rganamiz. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan har bir tilga yangi so‘zlar kirib keladi. Har qanday jamiyat olg‘a intilishni istasa, u o‘z tilini o‘zi bilan olg‘a olib boradi.” –deb ta’kidlagan. Shunga ko‘ra u o‘zining ushbu maqolasida boshqa tillarda bo‘lgan terminlarga pashtucha muqobil ko‘rinishi bo‘lgan terminlarni keltirib o‘tishga harakat qilgan.

Dr Bushra Ikram o‘zining <sup>3</sup> „ Pashto terminography“ ilmiy maqolasida terminlarni shakllantirishda quyidagi vazifalarga e’tibor berishni ta’kidlaydi:,, : pashtucha so‘zlarni to‘plash va materiallar to‘plash va lug‘atlar yozish , pashtu tilida yo‘q so‘zlarni bilish va chet tillaridan olingan so‘zlarni izlash va topish, izlanish va tarjimalardan so‘ng tilda biron bir so‘z uchun lug‘at bo‘lmasa, izlanishlar natijasida olingan xorijiy so‘zlar o‘rniga yangi pushtucha so‘zlarni kiritish yoki ommalashtirish, endi yangi so‘zlarga va topilgan so‘zlarga Pashtucha yangi nomlar berish.” Ushbu nazariyaga asoslanib ushbu olim quyigicha terminlarni tadbiq etadi. Capitalism-inglizcha, پانگمنوالي (pongamanvoli) –kapitalizm, Teleskop-inglizcha uning tarjimasi o‘zbek tilida „teleskop”dir. Pashtuchada ليرلайд (lirlid), termometr inglizchadan,

1. <sup>3</sup> Ikram B. پښتو اصطلاحات سازی // Bi-Annual Research journal, Vol.8, 2021. – P.43-53

o‘zbekchaga termometr , pashtuchada esa, (g‘arma shovunkay), Anthropology-antropologiya سری پوهنه- (saray puhana) va hakozo.

Pashtu tili transport terminologiyasida xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin. Misol uchun; inglizcha railway (reylwey) temir yo‘l so‘zi pashtu tiliga اوسيپنى پتلى (o‘spaney patley) temir yo‘l.

اورگади (urgoday) poyezd ushbu termin ingliz tilida train (treyn) poyezd , bu termin ingliz tilidan pashtu tiliga kalkalangan terminlardan biri hisoblanadi.

Station (steyshn) bekat o‘rniga ، تمھای (tamzoy) bekat .

Yuqorida ko‘rinib turibdiki, umuman kalkalash bo‘yicha misollar ushbu transport terminlarida unchalik ko‘p kuzatilmaydi.

### **Kompozitsiya usuli orqali temir yo‘l transport terminlarining yasalishi (Creation of railway transport terms through the composition method)**

Kompozitsiya orqali pashtu tili transport sohasida, xususan, temir yo‘l sohasida ko‘pgina terminlarni uchratishimiz mumkin. Umuman olganda kompozitsiya so‘ziga ta’rif beradigan bo‘lsak, uning ta’rifi quyidagicha; birdan ortiq mustaqili ma’noli so‘z yoki so‘z shakllarining qo‘siluvni, birikuvi orqali yangi so‘z yasash kompozitsiya deb ataladi. Pashtu tili temir yo‘l transport sohasida aynan shunday terminlarni uchratishimiz mumkin. Misol uchun; رېل گادى (rel goday) temir yo‘l , ushbu terminning birinchi qismidagi (rel) so‘zi ingliz tilidan pashtu tiliga o‘zlashgan va ushbu terminning tarkibi ko‘rinishi quyidagicha; رېل (rel) + گادى (godey).

برقى اورگادى (barqi urgodey) elektrovoz, ushbu kompozitsiya orqali yasalgan terminning tarkibi quyidagicha; برقى (barqi) + اورگادى (urgodey).

رېل پتلى (rel patley) temir yo‘l, ushbu terminning birinchi qismidagi (rel) so‘zi ingliz tilida pashtu tiliga o‘zlashgan transport termini hisoblanadi. Uning ikkinchi qismidagi (patley) so‘zi esa xind tilidan pashtu tiliga o‘zlashgan termin hisoblanadi. رېل پتلى (rel) + پتلى (patley) .

بادى كانتىنرى (bodey kontiniri) kuzovli konteyner, ushbu komozitsiya usuli orqali yasalgan pashtu transport terminining tarkibiy tuzilishi quyidagicha;

بادى كانتىنرى + (kontinari)

ليول كراسينك (levol krosing) o'tish joyi/ kesishma, ushbu kompozitsiya usuli orqali yasalgan transport terminining yasalishi quyidagicha; ليول (levol) + كراسينك (krosing). Bu terminga nazar soladigan bo'lsak, ushbu terminning ikkala qismi ham ingliz tilidan o'zlashgan terminlar hisoblanadi.

ترافيکي څراغ (trofiki srog') yo'l svetafori, ushbu kompozitsiya orqali yasalgan terminning tarkibiy tuzilishi quyidagicha; څراغ (trofiki) + (srog'). Uning birinchi qismidagi trofiki termini ingliz tilidan pashtu tiliga o'zlashgan termin hisoblanadi.

سرپت واگون (sarpt vogun) yopiq vagon, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha; (sar) (sarpt) + واگون (vogun). Bu terminning birinchi qismidagi sar so'zi dariy tilidan, pt so'zi pashtucha va vogun so'zi ingliz tilidan o'zlashgan.

اوتوماتي چنگى (utumoti chngak) avtomatik ilgak, bu terminning tarkibiy tuzilishi quyidagicha; اوتوماتي (utumoti) + چنگى (chngak)

لوكوماتиyo چلوونكى (lokomotiyu chalavunkay) mashinist, bu terminning tarkibiy tuzilishi quyidagicha; لوكوماتиyo (lokomotiyu) + چلوونكى (chalavunkay) ushbu terminning birinchi qismidagi lokomotiv so'zi ingliz tilidan pashtu tiliga o'zlashgan va ikkinchi qismidagi chalavunkay so'zi pashtucha termin hisoblanadi.

حفظ او مراقبت (xfz av maroqibat) ekspluatatsiya qilish, ushbu terminning har ikkala qismi arab tilidan o'zlashgan terminlar hisoblanadi. Uning tarkibiy tuzilishi; حفظ او مراقبت + (av) او (maroqibat)

موتورلرونكى واگون (moturlarunkay vogun) motorvagonli vagon,

موتور (mo'tar) واگون (larunki) + لرونكى (vogun)

جلا واگون (jlo vogun) ajralgan vagon

جلا واگون (vogun) ushbu terminning birinchi qismidagi jalo so'zi arab tilidan, ikkinchi qismidagi vogun so'zi ingliz tilidan o'zlashgan termin hisoblanadi.

ننوتلو لاره (nnvatulu lora) shahobcha yo'llari, ushbu terminning tuzilishi quyidagicha; ننوتلو (nnvatulu) + لاره (lora) ushbu kompozitsiya orqali yasalgan terminning har ikkala qismini pashtucha so'zlar tashkil etadi.

سرخلاس واگون (sarxlos vogun) yarim vagon, ushbu terminning tarkibiy tuzilishi quyidagicha; سرخلاس (sar) واگون (xlos) + واگون

مسافрону ستپشن (msofurunu steshn) yo'lovchilar uchun mo'ljallangan bekat, usbu kompozitsiya usuli orqali yasalgan transport terminining tuzilishi quyidagicha; مسافرونو ستپشن (musofirunu) + ستپشن (steshn), ushbu terminning birinchi qismidagi musofir so'zi arab tilidan, ikkinchi qismidagi station (steshn) so'zi ingliz tilidan o'zlashgan.

مسافرورونکى رېل گادى (msofurvrunkay rel goday) yo'lovchi tashuvchi poyezd, bu terminning tarkibiy tuzilishi; مسافرورونکى (musofirvrunkay) رېل + (rel) (goday). Uning birinchi qismidagi musofir so'zi arab tilidan, rel so'zi ingliz tilidan, goday so'zi pashtucha hisoblnadi.

سمندري قواو (samandari qavov) dengiz floti, ushbu terminning tarkibiy tuzilishi quyidagicha; قواو سمندري (samandari) + (qavov)

بار ظرفیت (bor zaifyat) yuk sig'imi, ushbu terminning tarkibiy tuzilishi quyidagicha; بار ظرفیت + (bor) (zarifyat). Bu terminga nazar soladigan bo'lsak, bor so'zi arab tilidan, zarifyat so'zi ham arab tilidan o'zlashga termin hisoblanadi.

رېلی همکاریو (reli hamkoriyu) temir yo'l hamkorligi, ushbu kompozitsiya orqali yasalgan terminning tarkibiy tuzilishi quyidagicha; همکاریو + (reli) (hamkoriyu).

د افغانستان د اوسيپني پېتلی اداري رئيس ملا بخت الرحمن شرافت د ازبکستان د رېل پېتلی اداري له (d). مرستیال او مل پلاوي سره په کته کي د دوه اړخیزو رېلی همکاریو<sup>4</sup> پر پراختیا خبری کړي af'anistan d o'spane patley rayis mulo bahturrahmon sharafat d o'zbekistan d reli patley idore 1 mrastyol av mal plovi sara p katina ke d dva arxezu reli hamkoriyu pr proxiyo xabare kre). „Afg'oniston temir yo'llari boshqarmasi boshlig'i mulla Baxtur Rahmon Sharafat O'zbekiston temir yo'li boshqarmasi boshlig'i o'rinosari va delegatsiya bilan uchrashuvda ikki tomonlama temir yo'l hamkorligini rivojlantirish masalalarini muhokama qildi”.

رېلی اتصال (reli atsol) temir yo'l ulanishi,

اتصال + (atsol) (reli), uning birinchi qismidagi rel so'zi ingliz tilidan, atsol so'zi esa arab tilidan o'zlashgan.

رېل پېتلی پرسونل (rel patley pursunal) temir yo'l kadri,

باروروونکى واګون (borvrunkay vogun) yuk tashuvchi wagon,

واګون (vogun). Ushbu terminning birinchi qismidagi borvrunkay so'zi arab tilidan, vogun so'zi esa ingliz tilidan o'zlashgan.

اطفایي ستېشн (atfoyi steshn) o't o'chirish stansiyasi.

اطفایي + (steshn) (atfoyi) bu terminning birinchi qismidagi atfoyi so'zi arab tilidan, steshn so'zi ingliz tilidan olingan.

انترмودل رېل (intermodal rel) intermodal temir yo'l

انترمودل + (rel) (intermodal) رېل ushbu terminning birinchi qismidagi intermodal so'zi ingliz tilidan, rel so'zi ham ingliz tilidan pashtu tiliga o'zlashgan.

پرسونل + (patley) (pursunal) رېل . ushbu kompozitsiya usuli orqali yasalgan terminning birinchi qismidagi rel so'zi ingliz tilidan, patley so'zi xindcha, pursunal so'zi ingliz tilidan o'zlashgan.

## Birikma holidagi temir yo'l transport terminlari (Railway transport terms in the case of consolidation)

Pashtu tili transport terminlarini yasalishida birikmali orqali yasalgan terminlarni ham uchratishimiz mumkin. Ushbu terminlar ham pashtu tilida ko‘pchilikni tashkil qiladi. Umuman olganda pashtu tilida birikmali termin yasalishida ⚡ (d) ning, ko‘makchisi alohida o‘rin tutadi. Bu qo‘s Shimcha so‘z oldidan odatda qo‘yiladi. Misol uchun ; ⚡ (d mo‘tar chalavulu javoz) haydovchilik guvohnomasi, bunda kelayotgan d qo‘s Shimchasi orqali ushbu transport termini yasalganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

جواز + چلولو + موئر + ⚡

د ترافик қнтрول تрек (d trofik kontrol tmarkaz) markazlashtirilgan dispechirlik, bunda d qo‘s Shimchasi ushbu terminning yasalishida asosiy rollardan birinni o‘ynagan.

трек + қнтрол + ترافик + ⚡

د ترانспорт программа (d transpurt program) transport jadvali, programmasi.

د اورگади بیарғоне (d urgoday biyorag‘una) tiklash poyezdlari, ushbu terminning boshida kelgan d (ning) qo‘s Shimchasi birikmali termin yasashga xizmat qilgan.

біарғоне + орткади + ⚡

د рел вилдинг мосхин (d rel vildring moshin) rels payvandlash mashinası, ushbu terminning boshida ham d (ning) birikma yasovchi qo‘s Shimcha qo‘s shilishi orqali ushbu termin yasalgan.

машин + вилдинг + رېل + ⚡

د масаворуонки رېл گادи (d msafurvrunkay rel goday) yo‘lovchi tashuvchi poyezd, ushbu termining ham e’tibor qaratdigan bo‘lsak, terminning boshida kelgan d (ning) qo‘s Shimchasi ushbu termin yasalishida muhim rol o‘ynagan.

گادи + رېل + масаворуонки + ⚡

Pashtu tili transport terminologiyasida bu kabi terminlarni ko‘p uchratishimiz mumkin. Biz bu birikma yasovchi qo‘s Shimchani ushbu transport terminlarini yasalishida muhim rollardan birini o‘ynashini ta’kidlamoqchi edik.

### XULOSA (Conclusion)

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pashtu tiliga temir yo‘l transport terminlari ko‘pgina usullar orqali yasaladi. Shundan eng sermahsul usul bu - affiksatsiya usuli orqali yasalgan transport terminlari tashkil etadi. Ushbu affiksatsiya orqali yasalgan transport terminlaridan tashqari kompozitsiya usuli orqali, kalkalash va birikma



orqali yasalgan terminlarni ham ko'rib turishimiz mumkin. Agarda ushbu affiksatsiya usuli orqali yasalgan terminlarga nazar soladigan bo'lsak, so'zga qo'shilayotgan affiks qo'shimchalarning ko'pchiligi boshqa tillardan o'zlashgan. Misol uchun oladigan bo'lsak; (موټروالا) (mo'tarvolo) haydovchi. Ushbu termindagi (volo) suffiksi xind tilidan pashtu tiliga o'zlashgan. Bularga o'xhash misollarni tadqiqotimizda ko'p uchratishimiz mumkin. Yana ham tadqiqotimizda kompozitsiya usuli orqali yasalgan terminlar ham ushbu ishimizda mavjud. Bunda 2 ta so'zning qo'shilishi orqali yangi bir transport termini hosil bo'lishini guvohi bo'ldik. Misol uchun; (urgoday chalavunkay) mashinist, bunda ikki so'zni qo'shilishi orqali yangi bir tushuncha hosil bo'lgan. Albatta, agarda e'tibor beradigan bo'lsak, bunga o'xhash terminlar pashtu tili transport terminologiyasida ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo hozirgi kunda pashtu tili transporti ayniqsa, temir yo'l transporti terminologiya sohasida yechilmagan muammolar anchaginani tashkil qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Zakariyo Mlotar ,، اوھوووتن و بېپوتپ 2018.
2. <https://unansea.rasmiy.sayti>
3. Ikram B. پښتو اصطلاحات سازی // Bi-Annual Research journal, Vol.8, 2021. – P.43-53
4. Afg'oniston temir yo'llari rasmiy twitter sahifasi